

AVTOTRANSPORT VOSITALARINING VIN RAQAMINING O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI BOJXONA SOHASIDAGI O'RNI.

Ollonazarova N

*bojxona instituti IV bosqich kursanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi hududiga chegara orqali tovar sifatida va yuk olib kirayotgan avtotransport vositalarining VIN raqami bojxona rasmiylashtiruvi va nazoratidagi o'rnini yoritib beradi. Shuningdek davlat imtiyozlarini to'g'ri qo'llash bo'yicha muammolarga yechimlar ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Avtomobil identifikatsiya raqami VIN - 17 belgidan iborat noyob avtomobil kodi. Kod avtomobil ishlab chiqaruvchisi, xususiyatlari va ishlab chiqarilgan yili haqida ma'lumot beradi.*

**Bojxona rasmiylashtiruvi** — *tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash maqsadida bojxona organlarining mansabdor shaxslari amalga oshiradigan operatsiyalar majmui.*

**Bojxona nazorati** — *qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmui*

**Аннотация:** *В данной статье разъясняется роль номера VIN при таможенном оформлении и контроле транспортных средств, въезжающих на территорию Республики Узбекистан в качестве товаров и грузов. Также рассматриваются пути решения проблем правильного применения государственных льгот.*

**Ключевые слова:** *Идентификационный номер транспортного средства VIN - это уникальный 17-значный код транспортного средства. Код предоставляет информацию о производителе автомобиля, технических характеристиках и годе выпуска.*

**Таможенное оформление** – *это совокупность операций, совершаемых должностными лицами таможенных органов в целях обеспечения таможенного контроля товаров и транспортных средств.*

**Таможенный контроль** – *это комплекс действий, осуществляемых таможенными органами в целях обеспечения соблюдения правовых документов и международных договоров.*

VIN kodini dekodlash avtomobil haqidagi barcha ma'lumotlarni bilib olish imkonini beradi. Uni o'qish uchun avtomobil identifikatsiya raqami qaysi qismlardan iboratligini bilishingiz kerak.

VIN ning birinchi qismi - Jahon ishlab chiqaruvchilari identifikatsiyasi (WMI yoki Jahon ishlab chiqaruvchilar indeksi) uchta belgini o'z ichiga oladi - bosh harflar yoki raqamlar. Raqam yoki harf bilan belgilangan birinchi belgi geografik hududni bildiradi. Avtomobil ishlab chiqarilgan mamlakat WMI ning ikkinchi belgisida shifrlangan.

Uchinchi belgi avtomobil turini yoki ishlab chiqaruvchining ishlab chiqarish bo'limini ko'rsatadi.

VIN ning ikkinchi qismi - VDS (Avtomobil tavsifi bo'limi) tavsiflovchidir. U dizayn hujjatlariga muvofiq transport vositasini belgilaydigan oltita belgidan iborat.

VIN ning uchinchi qismi - Avtomobilni identifikatsiya qilish bo'limi (VIS) indikativ bo'lib, sakkizta raqam yoki harfdan iborat. Sakkizta belgidan birinchisi avtomobilning ishlab chiqarilgan yili yoki model yilini, ikkinchisi yig'ish zavodini, oxirgi oltitasi esa avtomobilning seriya raqamini bildiradi.

Avtomobilning VIN-kodini dekodlash

**1 HG BH41J X M N 109186**

- ishlab chiqaruvchining mamlakat kodi
- Ishlab chiqaruvchining nomi (2-belgi), ishlab chiqarish bo'limi (3-belgi)
- Mashina tavsifi: modeli, korpus turi, spetsifikatsiyasi, transmissiyasi va dvigateli
- raqamlarning uzilishidan himoya qilish uchun nazorat raqami
- Avtomobil modeli yili
- Avtomobil ishlab chiqarilgan yig'ish zavodi
- Avtomobil seriya raqami

Oxirgi yillarda O'zbekiston hududidagi ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash hamda ichki ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, shuningdek, monopoliyani bartaraf etish uchun ma'lum talablarni qoniqtiradigan transport vositalari imtiyozlarga ega bo'lmoqda.

Bunga misol tariqasida usgbu qonun hujjatlarini keltirishimiz mumkin:

Prezidentning 29.03.2023 yildagi PQ-103 sonli qaroriga muvofiq qishloq xo'jaligi korxonalari va tadbirkorlik subyektlari tomonidan o'rnatilgan tartibda shakllantiriladigan ro'yxat asosida xorijdan olib kelinadigan barcha turdagi qishloq xo'jaligi texnikalari va agregatlari 2025-yil yanvariga bojxona to'lovlaridan ( QQS va bojxona rasmiylashtiruvi yig'imidan tashqari) va utilizatsiya yig'imidan ozod etiladi.

Prezidentning 19.08.2021 yildagi PQ-5225 sonli qaroriga muvofiq "Yevro-5" va undan yuqori ekologik toifa talablariga mos keladigan yuk tashish uchun mo'ljallangan, ishlab chiqarilganiga 7 yildan oshmagan transport vositalarini 2025-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasiga import qilishda ularga bojxona bojining, utilizatsiya yig'imining va avtotransport vositalarini sotib olganlik uchun avtotransport yig'imlarining nol stavkalari qo'llaniladi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ishlab chiqarilgan, ishlab chiqarilganiga 7 yildan oshmagan "Yevro-5" va undan yuqori ekologik toifa talablariga mos keladigan yuk va maxsus avtotransport vositalari 2025-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasiga import qilishda majburiy sertifikatlashdan ozod qilinadi.

Prezidentning 09.12.2021 yildagi PF-33 sonli farmoniga ko'ra, ro'yxatda keltirilgan yangi qurilish va maxsus texnikalar hamda yuk tashish transport vositalari 2024-yil 1-yanvarga qadar import qilinganda bojxona boji va utilizatsiya yig'imining nol stavkasi qo'llanadi. Faqatgina 12% QQS undiriladi.

Prezidentning 03.02.2018 yildagi PF-5326 sonli farmoniga tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan olib kirilayotgan ishlab chiqarilganiga 5yildan ortiq bo'lmagan, yo'lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan va haydovchidan tashqari sakkiz ta sakkiztadan ortiq o'rindiqlarga ega bo'lgan transport vositalari 2024-yil 1-yanvariga qadar bojxona boji to'lashdan ozod etiladi.

Yuqoridagi va shu kabi imtiyozlar halol tadbirkorlar va tashqi savdo ishtirokchilarini faoliyatini ancha yengillashtirdi va moliyaviy tomondan yengillik berdi. Ammo, ushbu yengillikdan g'arazli maqsadlarda foydalanuvchilar halol tadbirkorlarga ham bo'lgan ishonchni so'ndirishga olib kelmoqda.

Bunday kishilar avtotransport haqidagi ma'lumotlarni soxtalashtirib, bojxona nazorati uchun taqdim etilgan hujjatlarni qalbakilashtirib va boshqa yo'llar bilan bojxona qonunbuzarliklarini sodir qilib kelishmoqda.

Biroq, ular hujjatlarni qalbakilashtirishsa ham, eski transport vositalarini ta'mirlab, bo'yab yangidek holga keltirishsa ham, birkalarini almashtirib qo'yishsa ham temir plitaga o'yib yozilgan va mashina kuzoviga o'rnatilgan VIN raqamini qalbakilashtirishning iloji yo'q. VIN raqami esa yuqorida aytib o'tilganidek transport vositasi haqidagi barcha malumotlarni o'zida jamlagan.

Shu sababli bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish uchun bojxona ko'rigi paytida transport vositasi VIN raqamini taqdim etilgan hujjatlardan tashqari bojxona hodimlari shaxsan tekshirib, uni dekodlab hujjatdagi ma'lumotlarga solishirib ko'rilsa bojxona qonunbuzarliklarining anchasini oldi olingan bo'ladi. Hozirgi kunda internet sahifalarida VIN raqamini dekodlash uchun ko'plab ilovalar xizmatlar taqdim etilgan. Bundan tashqari bojxona yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida VIN raqami ko'rsatiladigan grafalarga mantiqiy nazorat shakli sifatida ularni dekodlab qolgan ma'lumotlar bilan solishtiriladigan xizmat joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.